



TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION TA'LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUN VA MOHIYATI

Sapayev U.A.

*Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi
p.f.f.d., (PhD)*

Tayanch so'zlar: innovatsion faoliyat, innovatsiya, integratsiya, innovatsion ta'lim muhiti, ta'lim jarayoni, mustaqil ta'lim va mustaqil fikrlash.

Ключевые слова: инновационная деятельность, инновации, интеграция, инновационная образовательная среда, образовательный процесс, самостоятельное образование и самостоятельное мышление.

Key words: innovative activity, innovation, integration, innovative educational environment, educational process, independent education and independent thinking.

Mutaxasislarning yuksak darajada ilmiy va kasbiy salohiyatga ega bo'lishida oliy ta'limning o'rni beqiyos sanalib, oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy-innovatsion g'oyalar bevosita jamiyat va davlatning barqaror rivojlanish tendensiyalarini belgilab beradi. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonlarini tahlil qilmasdan turib, davlatning muhim innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini belgilab bo'lmaydi[1].

Yuqorida takidlanganlarga asosan ta'lim jarayonida nafaqat yuksak darjadagi nazariy bilimlarga va kasbiy tushunchalarga ega, shu bilan birga o'zlashtirilgan bilimlarni qanday qilib amaliyotga joriy qilishni biladigan va o'qish yakunida innovatsiyalarga asoslangan mahsulot, texnologiya yoki texnik xizmatlarni taqdim etaoladigan mutaxassislarni tayyorlashning innovatsion ta'lim berish mexanizmlarini yaratish shu kunning dolzarb masalasi hizoblanadi.

Oliy ta'lim jarayonlari talabalarga o'zining innovatsion fikrlarini shakllantirishga va uni innovatsion tavar yoki xizmat turiga olib kelishiga hamda yaratilgan mahsulotlarni bozorda qanday innovatsion usullarda xaridorlarga



takliflarni amalga oshirishga imkoniyat beruvchi yuksak darajadagi pedagogik shart - sharoitlarni tashkillashtirishi lozim bo'ladi [2].

Zamonaviy bilimlarga tayangan holda innovatsion texnika va texnologiyalarni rivojlantirish natijasida milliy rivojlanish tizimiga erishish va natijada mamlakatning barqaror iqtisodiy munosabatlarini shakllantrish imkoniyati vujudga keladi. Bu degani, ta'lim jarayonida yaratilgan innovatsion g'oyalarni ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda tayyor mahsulot holiga keltirishning asoslarini ishlab chiqarish bilan oliy ta'lim o'rtasidagi integratsiyani maqsadli shakllantirish bilan izohlash mumkin bo'ladi [3].

Oliy ta'lim jarayonlariga davlatimiz tomonidan ma'lum ta'lim standartlari jaryi qilingan bo'lib, bunga asosan o'quv fanlarining bloklari mazmunida "Ta'lim va tarbiya jarayonida mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir, har tamonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilganligini ta'minlash lozim" deb belgilangan[4. 12-bet]. Shunga asosan oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonlarini yuksak darajada amalga oshirish, ta'lim berishning yangi innovatsion yo'nalishlarini va metodlarini yaratish hamda ularga tayangan holda ta'lim jarayonini amalga oshirish, talabalarning texnikaviy innovatsion fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, talabalarni innovatsion faoliyatlarga jalb qilish ishlarini tashkillashtirish, kasbiy va shaxsiy qiziqishlarini uyg'unlashtirish hamda doimiy innovatsion texnologiya va texnikalarni yaratish faoliyati bilan shug'ullanishlarini ta'minlash zarur hisoblaniladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalari talabalaridan innovatsion faoliyat haqidagi bilimlarni va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish talab etiladi. Chunki innovatsion faoliyat mustaqil fikrlash, mustaqil faoliyat yurgizishning asosiy manbai bo'libgina qolmay, balki barcha shaxslar uchun ijodiy qobiliyatini namoyon qilish, intellektual salohiyatlarini yuksak darajada rivojlantirish, o'z shaxsiy faoliyatiga va kasbiy rivojlanishiga nisbatan individual xususiyatlarini takomillashtirish va mehnatga bo'lgan ijodiy yundashuvlarini innovatsion imkoniyatlarini kengaytirishga sharoit yaratadi.

Hozirgi vaqtda zamonaviy universitet faqat kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish masalalari bilan shug'ullanishi yetarli emas. Jamiyatda oliy ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishlariga nisbatan juda katta ehtiyoj mavjud. Oliy ta'lim muassasalari uzluksiz rivojlanishida ularning o'zaro raqobatbardoshlik xususiyatlariga doimo shay bo'lishi ta'lab etiladi. Oliy ta'lim muassasalari doimiy o'zgaruvchan dunyoning barcha yo'nalishlariga moslasha olishning innovatsion texnologiyalariga ega bo'lishi zarur hisoblanadi. Ilmiy izlanishlarga va yangi innovatsiyalarni amaliyotga

joriy qilish yo‘nalishidan borayotgan oliy ta‘lim muassasalari doimo ulkan muvaffaqiyatlarga erishadilar. Shuni takidlash joizki, oliy ta‘lim muassasalarida innovatsion muhitni va faoliyatni yo‘lga qo‘yishda ta‘lim jarayonlarida quyidagilarga etibor qaratish lozim bo‘ladi:

- innovatsiyalarni iqtisodiy vositalar yordamida qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari asosida universitetlarni rivojlantirish va boshqarish tizimlarini takomillashtirish;
- fundamental va innovatsion ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish va zamonaviy takliflarni yaratish;
- ilmiy-innovatsion tadqiqotlarning natijalari asosan yangi texnika va texnologiyalarni loyihalash hamda ularni hayotga joriy qilish mexanizmlarini yaratish;
- davlat va jamiyatning barch javhalarini rivojlanishiga xizmat qiluvchi innovatsion salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, yuqori malakali kadrlarni (fan nomzodlari, fan doktorlari) tayyorlash.

Bunday rejalarni amalga oshirish uchun talabalarni o‘qitish jarayoniga nafaqat maqsadli, balki o‘quv rejalari mazmuniga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, talabaning shaxsiy kreativ xususiyatlarini ifoda etuvchi va o‘zini namoyon qilishga imkoniyat beradigan innovatsion ta‘lim olish muhitini shakllantirish va rivojlantirish muhim hamda har bir talabaga o‘zining shaxsiy qobiliyatlari to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar berish maqsadga muvofiq sanaladi [5, 20-bet]. Shu ma‘noda ta‘lim jarayonida interfaol metodlardan hamda yangi innovatsion ta‘lim berish instrumentariyalaridan foydalanish ko‘zlagan maqsadimizga erishishimizga yaqindan yordam beradi.

Ma‘lumki, har qanday innovatsiyalarni yaratish uchun bizga innovatorlar kerak bo‘ladi. Ammo innovatsiya salohiyatli mutaxassislarning ongida paydo bo‘lgan uchqun bo‘lsa ham, uni olovlantiradigan muhitga muhtoj. Bu muhit ta‘lim muassasalari, ishlab chiqarish tarmoqlari va boshqa tashkilotlar tomonidan shakllantiriladi.

Vengriyalik psixologiya fanlari professori Mixali Csikszentmihalyining ilmiy izlanishlari asosida ijtimoiy, madaniy-ma‘rifiy va bevosita jamiyat hayotida ishlaydigan innovatsion muhitni rivojlantiradigan rag‘batlantiruvchi makroiqtisodiyotni yaratish zarurati to‘g‘risida ta‘kidlaydi. “Muvaffaqiyatli muhit potentsiali yuqori bo‘lgan talabalarning erkin fikrlashlarini va yangi g‘oyalarini rag‘batlantiradi” [6. 140-bet]. Ya‘ni eng yaxshi urug‘ni ham ekiladigan muhiti yaxshi bo‘lmas ekan, undan hosil kutishning ma‘nosi yo‘qdir. Shuning uchun ham yangi innovatsion loyihalar uchun jamiyatda yetarli muhit shakllantirilgan bo‘lishi zarurdir.



Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi va ilmiy innovatsion tadqiqotlarni yuksak darajada amalga oshirilishi uchun olib boriladigan tadbirlarning tizimla ravishda bajarilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni innovatsiyalar-ishlab chiqarish-bozor munosabatlarining aniq tizimli ravishda amalga oshirilishi innovatsiyalarning hayotiyiligini va samaradorligini, shuningdek, manfaatdor tomonlarning daromadlarini oshishiga hamda davlatning iqtisodiyotini kafolatli o'sishiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. U.A. Sapayev. "Factors and educational opportunities of forming the culture of innovative activity of the students of technical higher educational institution", ACADEMIA: An International Multidisciplinary Research Jurnal (Double Blind Refereed & Peer reviewed Juornal) Vol.13, Issue 1, January 2023. ISSN 2249-7137 Impact factor SJIF 2022: 8.252. dio:10.5958/2249-7137.2022.00613.9
2. M.S. Chvanova, N.A. Kotova. "Formirovanie innovatsionnoy obrazovatelnoy sredy v vuze kak sovremennaya potrebnost sotsiuma" nkotova01@yandex.ru. Psixologo-pedagogicheskiy jurnal Gaudeamus, №1 (23), 2014 g.,rr. 44-51
3. B.Yu. Serbinovskiy, B.B. Serbinovskiy L.M. Yegorova. "innovatsionnaya model i integrirovannaya informatsionnaya sreda v upravlenii universitetom novogo tipa" «Yujnyy federalnyy universitet» Novocheerkassk: YuRGU (NPI), 2009. – 226 s
4. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limining me'yoriy hujjatlari. Toshkent: 2001. – 138 b.
5. Ibragimova G.N. "Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish" pedogogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan. Diss. Toshkent: 2017 yil, 158 b.
6. Csikszentmihalyi M., Creativity: The Psychology of Discovery and Invention (2013), Harperperennial, New York, NY

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada texnika oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish mexanizmlari to'g'risida ilmiy tahlillar olib borilgan. Ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini belgilab olishda bir qancha adabiyotlar tahlil qilingan bo'lib, texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni innovatsion ta'lim muhitida o'qitishning ilmiy asoslari va imkoniyatlari tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье проведен научный анализ механизмов формирования инновационной образовательной среды в технических вузах. При определении направлений научных исследований был проанализирован ряд литературы, а также проанализированы научные основы и возможности обучения студентов в инновационной образовательной среде в технических вузах.

SUMMARY

In this article, a scientific analysis of the mechanisms of forming an innovative educational environment in technical higher education institutions was carried out. A number of literatures were analyzed in determining the directions of scientific research, and the scientific bases and possibilities of teaching students in the innovative educational environment in technical higher education institutions were analyzed.